

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA “O‘G‘RI” HIKOYASINI INTERFAOL METODLAR VOSITASIDA O‘RGANISH

Toshpo‘latova Barchinoy Bahodir qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda talim tizimining dolzarb masalalari, o‘qitishning zamonaviy interfaol metodlari to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan. Shu bilan birga 6-sinf adabiyot darslarida “O‘g‘ri” hikoyasini o‘qitishda “Klaster”, “Mantiqiy chalkash zanjir”, “Beshinchisi ortiqcha”, “O‘z o‘rnini top” metodlari yordamida dars o‘tish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: interfaol, klaster, hikoya, metod, qahramonlar, ta’rif

Аннотация: В статье представлена информация об актуальных проблемах системы образования, современных интерактивных методах обучения. Технология обучения разработана с помощью методик “Klaster”, “Mantiqiy chalkash zanjir”, “Beshinchisi ortiqcha”, “O‘z o‘rnini top”.

Ключевые слова: интерактив, кластер, повест, метод, персонажи, описание.

Abstract: The article provides information about current issues of the education system, modern interactive teaching methods. Teaching technology was developed with the help of “Klaster”, “Mantiqiy chalkash zanjir”, “Beshinchisi ortiqcha”, “O‘z o‘rnini top” methods.

Key words: interactive, cluster, story, method, characters, description.

“Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi”

Shavkat Mirziyoyev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan mamlakatimizning rivojlantirishning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi

O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida davlat va jamiyat hayotining tubdan isloh qilishga qaratilgan 300 yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda ilmiy marifiy sohalarni rivojlantirishga qaratilgan bir qator yangiliklar, qarorlar, har bir soha hamda soha vakillari uchun alohida maqsad va vazifalar ishlab chiqilgan. Xususan, bu sohalarda ta'lim sifatini oshirish bo'yicha strategiyaning 41-maqsadida maktablarni rivojlantirishda yangi maktablar qurish, xususiy maktablarni ko'paytirish, ta'lim sifatini oshirishni nazarda tutuvchi milliy dasturlar ishlab chiqarish, oquv o'rinlar sonini 2026-yil yakuniga qadar 6,4million nafargacha yetkazish, 2022-2026 yillarda 217 ta Barkamol avlod bolalar maktabini rivojlantirish borasida dasturni amalga oshirish, yoshlarni sa'nat dunyosiga jalb etish, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta'minlangan. 100mindan ortiq bepul to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish, chekka hududlarda maktab hamda maktabgacha ta'lim muassasalarigacha transport qatnovini yo'lga qo'yish kabi maqsadlar qo'yilgan. Adabiyotni o'qitish boshqa fanlarni o'qitishdan keskin farq qiladi. Aniq fanlarni o'qitishda o'qituvchi o'quvchilariga insoniyat tomonidan kashf etilgan tayyor bilimlarni o'rgatadi. Bunda o'quvchilar ham ortiqcha zo'riqishlarsiz, qiynalishlarsiz tayyor bilimlarni o'zlashtiradilar. Yana bir jihati, bunday fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchilar barchasi yagona yechimga, xulosaga keladilar va bu ilmiy yagona haqiqat hisoblanadi. Adabiy ta'lim har bir o'quvchidan o'ziga badiiy idrokni, asarni his etishni, kashf qilishni va yagona xulosaga emas, turfa yechimlarga, xulosalarga kelishi tabiiy hol sifatida baholaydi, to'g'ri deb biladi. O'quvchilar bitta asarni o'qib o'rganishsada, undan turlicha hissiy ta'sirga, quvvatga ega bo'ladilar, rango-rang xulosalar yasaydilar. O'quvchilarning badiiy tafakkurini o'stirishda; badiiy asarlar, ayniqsa, hikoya janrining imkoniyatlarini to'liq ochib berilishida; so'z sehri, qudratini teran his qilinishida; hayotning asl suratini – badiiy talqinini o'qib, zaruriy xulosalar hosil qilinishida; o'tmish bilan bugun o'rtasidagi taraqqiyot darajasini

muqoyasa qilinishida; fikrni ifodalashning sodda, siqiq shakllarini o'rganib, mantiqiy fikrlash imkoniyatlarini kengaytirilishida; o'quvchining olam haqidagi, odam haqidagi bilimlarini boyitishda, shubhasiz, Abdulla Qahhor asarlarining ham alohida o'rni, mavqei bor. Adabiy ta'lim amaliyotida Abdulla Qahhor asarlarini: hikoya, qissa va romanlarini o'rganish yuzasidan juda boy pedagogik tajriba to'plangan, ommalashtirilgan. Bir qarashda, adib asarlarini o'rganish yuzasidan aytilmagan fikr, tavsiya etilmagan metod yoki usulning o'zi qolmagandek. Chindan ham, Abdulla Qahhor asarlari o'zbek adabiy ta'lim jarayonida uzoq yillardan beri o'rganilmoqda, o'rgatishning yangi-yangi qirralari kashf etilib, keng o'qituvchilar jamoasiga amaliy foydalanish uchun tavsiya etilmoqda. Ushbu maqolada biz ham umumta'lim maktablarida O'g'ri hikoyasini o'qitish va uni mustahkamlashda bir qator interfaol metodlardan foydalanib darslarni qiziqarli olib borish mumkinligini ko'rib o'tdik. Xo'sh, interfaol metodining o'zi nima? Ular qanday didaktik imkoniyatlarga ega? "Interfaol" tushunchasi ingliz tilida "interact" (rus tilida "interaktiv") ifodalanib, lug'aviy nuqtai nazardan "inter" - o'zaro, ikki taraflama, "act" - harakat qilmoq, ish ko'rmoq kabi ma'nolarni anglatadi. Interfaol ta'lim – ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim. Umumta'lim maktablarining 6-sinfda O'g'ri hikoyasini o'qitishda quyidagi interfaol metod turlaridan foydalanish mumkin:

- **“Klaster” metodi**
- **“Mantiqiy chalkash zanjirlar” metodi**
- **“Beshinchisi ortiqcha” metod**
- **“O'z o'rnini top” metodi**

Klaster metodi

“Klaster” (g'uncha, to'plam, bog'lam) metodi puxta o'ylangan strategiya bo'lib, uni o'quvchilar bilan, yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlarda

qo'llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

Metoddan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi:


Nimani o'ylagan bo'lsangiz, uni qog'ozga yozing! Fikringizning sifati haqida oylanib o'tirmay shunchaki yozing

Yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e'tibor bermang


Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmaguncha, yozishdan to'xtamang! ma'lum muddat o'ylay olmasangiz, u holda qog'ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang! Bu harakatni yangi g'oya tug'ilguncha davom ettiring!

Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko'proq yangi g'oyalarni ilgari surish, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, bog'liqlikni ko'rsating!

Metod yordamida o'quvchilar topshiriq bo'yicha fikrlarni klaster tarzida ifodalaydi. Endi biz "O'g'ri" hikoyasida qatnashgan asar qahramonlarini ushbu metod vositasida ko'rsatishga harakat qilamiz. Asar Qobil boboning ho'kizi yo'qolishi bilan boshlanadi. Asar davomida Qobil bobo ho'kizi topilishi uchun murojaat qilgan shaxslar birin ketin keltirilgan. Buni quyida klaster metodi vositasida yoritdik:



Keyingi klaster yordamida o'quvchilarning eslab qolish qobiliyatini sinovdan o'tkazish maqsadida foydalanish mumkin. Hikoya matni to'liq o'qitilib bo'lgach, o'qituvchi klasterga to'g'ri ketma ketlikda Qobil bobodan pul undirgan shaxslar ismi yozish topshirig'ini beradi




Mantiqiy chalkash zanjir metodi

Metod tushunchalar, bildirilgan fikrlar o'rtasida bog'liqlikni yuzaga keltirish, ularni mantiqiy jihatdan ketma-ketlikda to'g'ri ifodalashga yordam beradi. Uning mohiyatiga o'qituvchi mavzuni yorituvchi ma'lum otlarni to'g'ri va noto'g'ri tartibda bayon etadi. O'quvchi (talaba)larning vazifasi mantiqiy jihatdan noto'g'ri ifodalangan ma'lum otlarni to'g'ri dalillarga aylantirish, yuzaga kelgan mantiqiy chalkashlikni tuzatish, fikrlarni muayyan ketma-ketlikda to'g'ri joylashtirgan holda uzilgan zanjirni "ulash"dan iborat. Mashg'ulotda metodni qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- O'qituvchi o'quvchilarni metodning mohiyati bilan tanishtiradi;
- O'quvchilar bir nechta kichik guruhlariga birlashtiriladi;
- Kichik guruhlariga chalkash ma'lumotlarni o'zida ifodalagan tarqatma materiallar beriladi;
- Topshiriqni bajarish uchun vaqt belgilanadi;
- Kichik guruh tarqatmali materialda ifodalangan matndagi mantiqiy xato va chalkashliklarni aniqlab, uzilgan zanjirni "ulash"ga harakat qiladi;
- Belgilangan vaqt yakunlangach, har bir guruhdan bir nafar vakil jamoani topshiriq mazmuni va guruhning javoblari bilan tanishtiradi;

- Jamoada guruhlarining javoblari yuzasidan muhokama tashkil etiladi;
- O'qituvchi jamoaning fikriga tayanib guruhlar ishini baholaydi.



Yuqorida, "O'g'ri" hikoyasidan keltirilgan chalkash matnlarni mantiqiy jihatdan to'g'irlab ikkitadan zanjir hosil qilish vazifasi topshiriladi

Beshinchisi ortiqcha metodi

O'quvchilarning mantiqiy tafakkur yuritish konikmalariga ega bolishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qollashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

1. o'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiladigan tushunchalar tizimini shakllantirish;
2. hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan to'rtta (beshta, oltita,...) va taalluqli bo'lmagan bitta tushunchaning o'rin olishiga erishish;
3. o'quvchi (talaba)larga mavzuga taalluqli bolmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;
4. o'quvchi (talaba)larni o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga

ham izoh berib o'tish, ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni asoslash talab qilinadi). Mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni ko'rsata va asoslay olish o'quvchilarda mustaqil fikrlash, shaxsiy yondashuvlarini dalillash tengdoshlarning fikrlari va shaxsiy g'oyalarni o'zaro taqqoslash ko'nikmalarini ham shakllantirishga imkon beradi.



Yuqorida berilgan, “Beshinchisi ortiqcha” metodida o'qituvchi sinf taxtasiga mavzuga taalluqli bir qator ma'lumotlarni yozadi hamda mavzuga taalluqli bo'lmagan bitta ma'lumot qo'shib o'tadi. So'ngra o'quvchilarga mavzuga taalluqli bo'lmagan ma'lumotni topish vazifasi beriladi. Masalan, yuqorida keltirilgan namunada Qobil bobo ho'kizi topilishiga evaziga mansabdor shaxslarga bergan narsa va buyumlar nomi keltirilib, ular orasiga bitta ortiqcha bir bosh qo'y si ham qo'shib o'tilgan.

O'z o'rnini top metodi

Ushbu metodni ko'proq o'tilgan mavzularni takrorlash maqsadida qo'llash samarali natija beradi. Bu metodni kichik guruhlar bilan birgalikda yoki yakka tartibda (individual) olib borsam ham bo'ladi. Metodni tarix fanlarini o'qitishda bir ustunga yillar, bir ustunga o'sha yillarda sodir bo'lgan voqealarni aralashtirib joylashtirish yoki adabiyot darslarida qahramonlar tilidan aytilgan, iboralar, jumlar

yozilib,ular qaysi qahramonlarga tegishli ekanligini topish tarzida o'tkazish mumkin.Metodni o'tkazilish tartibi quyidagicha

- Sinfdagi o'quvchilar 2/3 guruhga bo'lib olinadi;
- O'qituvchi tomonidan tayyorlab kelingan tarqatma materiallar beriladi;
- Qanday bajarish tartibi tushuntiriladi;
- Bajarish uchun 5 daqiqa vaqt belgilanadi.

Quyida berilgan birinchi ustundagi jadvalda "O'g'ri" hikoyasidagi qahramonlar tilidan jumlar berilgan ,ikkinchi ustunda esa asar qahramonlari nomi chalkash holda yozilgan.O'quvchilar jummalarni o'qib qaysi qahramonga tegishli ekanligini topishlari lozim.

1.Yig'lama,yig'lama,deyman Ho'kizing oqpodsho qo'l ostidan chiqib ketmagan bo'lsa,topiladi.	Qobil bobo
2.Endi bizga qiyin bo'ldi-da . Buncha peshonam sho'r bo'lmasa....	Amin
3.Yo'qolmasdan ilgari bormidi?Qanaqa ho'kiz edi?	Ellikboshi
4.Ey,yosh bolamisiz?Nega yig'laysiz? Kap-katta odam...	Tilmoch
5.Ha,ho'kizni uylariga eltib berishsinmi Axir borilsin arz qilinsin- da.	Pristav
6.Yo'q sigir emas ,ho'kiz ola ho'kiz edi.	Amin
7.Qidirtirsakmikan-a?—dedi chinchilog'ini ostiga artib	Kampir

Bugungi zamonaviy o'qitish talabi har bir fan o'qituvchisi oldiga bir qator talablarni qo'ymoqda.Shundan kelib chiqib, pedagog o'z kasbining ustasi,buyuk yaratuvchisi bo'lmog'i zarur.Umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirish o'quvchilarni darsga jalb qilish,darsni qiziqarli hamda mazminli olib borish pedagogning o'z kasbiga bo'lgan yuksak muhabbati hisoblanadi.Bu o'rinda zamonaviy

innovatsiyalar, pedagogik texnologiyalar hamda interfaol metodlarning o'rnini beqiyos. Bugungi rivojlangan texnika asrida turli xil elektron vositalardan foydalanib darslarni qiziqarli olib borish, albatta, o'qituvchining o'z qo'lida. O'qituvchi ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llash bilan bir qatorda o'quvchilar o'rtasida do'stlik, hamjihatlik tuyg'ularni mustahkamlaydi hamda o'zaro hurmat hisini uyg'otadi. Darsga bo'lgan qiziqishini orttiradi. Shu maqsaddan kelib chiqib, biz ham adabiyot darslarida hikoya janrini o'qitishda hamda ularni mustahkamlab olishda qo'l keladigan bir qancha metodlarni ko'rib chiqdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston respublikasining — Ta'lim to'g'risidagi qonuni
2. Usmonboyeva M., Aripova Sh., Rejametova I, Mo'minova D.
Ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. - Toshkent: 2019.
3. 6-sinf adabiyot darsligi.